

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDAGI KOMPETENSIYAVIY TA'LIMNI
TASHKIL ETISHDA ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARIDAN
FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI**

¹Xakimova Muhabbat Fayziyevna, ²Mamarajabov Shavkat Ergashevich

¹TDIU “Innovatsion ta'lism” kafedrasi mudiri, p.f.d., prof.

²TDIU, professor v.b., p.f.n.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10805117>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosidagi kompetensiyaviy ta'limi tashkil etishda elektron axborot ta'lism resurslaridan foydalanish masalalari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *integrativ yondashuv, kompetensiyaviy ta'lism, elektron axborot ta'lism resurslari, elektron darslik, media ta'lism.*

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы использования электронных информационных образовательных ресурсов в организации компетентностного образования на основе интегративного подхода.

Ключевые слова: интегративный подход, компетентностное образование, электронные информационные образовательные ресурсы, электронный учебник, медиаобразование.

Abstract. *The article discusses the issues of using electronic information educational resources in the organization of competency-based on an integrative approach.*

Keywords: *integrative approach, competency-based education, electronic information educational resources, electronic textbook, media education.*

Jahonda o'qitish jarayonida talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, oliy ta'lim tizimida fanlarni integratsiyalab o'qitish mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyatga tatbiq etish, bilimlarni kundalik, hayotiy va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqatini oshirish, bilimlarni to'liq o'zlashtirish texnologiyasini takomillashtirish, vitagen ta'limi qo'llash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar o'quv mashg'ulotlarida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integrativ yondashuv asosida qo'llash, talabalar kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyot sohasini rivojlantirish, iqdisodiy korxona va tashkilotlarni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar maxsus fanlarni o'qitish jarayoniga xalqaro tajribalarni samarali tatbiq etish, talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda integrativ ta'lism texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirdi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish»¹ vazifalari belgilangan. Bu borada talabalarda tayanch va fanga doir kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va informatsion tarkibiy asoslarini aniqlashtirish, integrativ yondashuvga asoslangan maxsus fanlarni o'qitishning «kompyuterli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “Zzbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni/ <https://lex.uz/docs/4545884>

ta’lim metodi»ni ta’lim amaliyotiga joriy etish mexanizmini takomillashtirish, xususiy kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim tizimidagi bugungi ijtimoiy talablar axborotlashtirish jarayonlarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Oliy ta’limni zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta’lim resurslarini takomillashtirish, talabalarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta’minlash, mustaqil ta’limini amalga oshirish va o‘z-o‘zini baholash, zaruriy ma’lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Talabalarda integrativ yondashuv asosida kompetensiyalarni shakllantirish tizimida ta’lim mazmuni samaradorligi, o‘qitish shakllari va metodlaridan foydalanib pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida talabalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni tavsiflangan.

Shuni e’tiborga olgan holda olib borilgan izlanishlar natijasida bizning Toshkent davlat iqtisodiyot universitetimizda integrativ yondashuv asosida talabalarning tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanidan elektron axborot-ta’lim resursi (EATR) ishlab chiqildi. Integrativ yondashuvlar asosida ta’lim mazmuniga mos keladigan darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, elektron-ta’lim resurslarini ishlab chiqishga qo‘yiladigan didaktik talablar o‘rganildi.

Elektron darslik quyidagi talablar asosida ishlab chiqildi: darslikning davlat ta’lim standartlariga muvofiqligi, taqdim qilinayotgan materialning ilmiy asoslanganligi, zamonaviy qarashlarga mosligi, nazariy xatolikka yo‘l qo‘yilmaganligi va mukammal shakllantirilganligi, matnning to‘liqligi, grammatik va orfografik xatolardan xoliligi, darslikning uslubiy ishlab chiqilganlik darajasi, pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilganligi, milliy va ma’naviy qadriyatlarga mosligi, bilimlarni mustahkamlash uchun topshiriqlarning mavjudligi, nazorat materiallarining (topshiriqlar, vaziyatli masalalar) ishlab chiqilganligi, statik va dinamik tasvirlar, illyustrativ (foto, video, animatsiya va b.) materiallarning etar�iligi, talabalar yoshining psixologik va pedagogik xususiyatlari hisobga olindi. Elektron darslikning ergonometrik talablarga javob berishi, rang, shrift, monitor ekranini va shu kabilarga qo‘yilgan talablarga mosligi, elektron darslikni kompyuterga va uyali aloqa vositalariga o‘rnatishning qulayligi, darslik bilan ishslash va boshqarishning qulayligi va h.k.larga ham e’tibor qaratildi.

Elektron darsliklar matnlarning bir qancha ko‘rinishda bo‘lishi bilan bosma matnlardan farqlanadi. Bu talabalarning mavzuni samarali o‘rganishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Elektron axborot-ta’lim resursi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) Ma’ruza matnlari;
- 2) Taqdimotlar;
- 3) Amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlar;
- 4) Talabalarning bilimini nazorat qilish uchun test topshirig‘i;
- 5) Fan yuzasidan tavsсиya etiladigan adabiyotlar;
- 6) Glossariy (izohli lug‘at);
- 7) Mustaqil ta’lim uchun mavzular va mustaqil ish topshiriqlari.
- 8) Mualliflar haqida ma’lumotlar.

Bu kabi innovatsion asosga ega bo‘lgan ta’lim resurslaridan foydalanish talabalarda o‘quv-bilish faoliyatining jadallahushi va integratsion jarayonlarning vujudga kelishi, mediata’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta’minkaydi.

Mediata’lim resurslaridan foydalanishda o‘qituvchi talabalarning quyidagilarni amalga oshirishiga e’tibor qaratishi lozim: har qanday kontekstda berilgan va turli shakldagi axborot resurslaridan foydalanish; izlanayotgan mediata’lim resurslarining nomi, mavzusi va darslik yo‘nalishiga mos kelish yoki kelmasligi, bularga berilgan izoh, tavsif va qo‘srimcha didaktik materiallardan foydalana olish kompetensiyasiga ega bo‘lish; fan bo‘yicha mediata’lim resurslaridan olinayotgan material va manbalar, ya’ni barcha materiallarni darslikdagi mavzular bo‘yicha tizimlashtirib foydalanishga o‘rganish, berilayotgan verbal tarzdagi (matnli ko‘rinishdagi) materiallarni vizual holatga o‘tkazish kompetensiyasini shakllantirish, ya’ni berilgan matn asosida ko‘rsatmali manbalar yaratish; berilayotgan vizual (chizma, surat, rasm ko‘rinishidagi) materialarga ishlov berish kompetensiyasini shakllantirish; berilgan mediata’lim resursi materiallarini transformasiya qilish, ya’ni berilgan materiallarning hajmi, mazmuni va shaklini darslik materialiga moslashtirish, qisqartirish yoki o‘zgartirish holatlariga e’tiborli bo‘lish; berilayotgan informatsion (axborot) oqimning (yo‘nalishlari)ni tahlil etish hamda kommunikatsion maqsadlarini bilish; mediata’lim resurslaridan olingan materiallarni o‘z so‘zi bilan aytib berish, asoslash (argumentlash) orqali kommunikativ kompetentlilagini shakllantirish.

Integrativ yondashuv asosidagi kompetensiyaviy ta’limni tashkil etish jarayonida mashg‘ulotlarni olib borish natijasida ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish va talabalarda motivatsiyaning qaror topishini ta’minalash mumkin.

Integrativ yondashuv asosidagi kompetensiyaviy ta’limni tashkil etish jarayoni bilan an’anaviy o‘qitish jarayonini taqqoslab, kompetensiyaviy ta’limni joriy etish orqali samarali natjalarga erishish mumkin.

Integrativ yondashuv asosidagi kompetensiyaviy ta’limni tashkil etish jarayoni bilan an’anaviy o‘qitish jarayonini taqqoslab, jadval ko‘rinishida quyidagicha taqdim etish mumkin:

Integrativ yondashuv asosidagi kompetensiyaviy ta’limni tashkil etish jarayoni bilan an’anaviy o‘qitish jarayonini taqqoslash

T/r	Ta’lim jarayoni	An’anaviy ta’lim	Integrativ yondashuv asosidagi kompetensiyaviy ta’lim
1.	Ta’lim mazmuni	Bilim ko‘nikma va malakalar	Bilim ko‘nikma va malakalar hamda tayanch, fanga oid xususiy kompetensiyalar
2.	O‘qitish vositalari	Jadvallar, slaydlar, tarqatma materiallar	Jadvallar, slaydlar, tarqatma materiallar va «kompyuterli ta’lim vositalari» (multimedia resurslari)
3.	O‘qitish metodlari	Og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy	Og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy hamda mantiqiy, muammoli, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari
4.	Pedagogik texnologiyalar	An’anaviy ta’lim texnologiyalari	Didaktik o‘yin, modulli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari, muammoli ta’lim texnologiyalari, loyihaviy ta’lim
5.	O‘qitish shakllari	O‘quv mashg‘uloti va o‘quv mashg‘ulotidanishlash, tashqari ishlar	O‘quv mashg‘uloti, mustaqil tashqari mashg‘ulotlar

6.	Kutilayotgan natijalar	Bilim ko'nikma va malakalar	Bilim ko'nikma va malakalar hamda tayanch, fanga oid xususiy kompetensiyalar
----	------------------------	-----------------------------	--

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, integrativ yondashuvga asoslangan "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanidan ishlab chiqilgan elektron darslik raqamli didaktik vosita, avtomatlashgan ta'lif tizimlari, multimedia dasturlari asosida talabalar tomonidan individual imkoniyat doirasida o'zlashtiradigan bilimlarning integrativ motivlar bilan qabul qilinishi, kasbiy sohalarida o'zaro aloqador bo'lgan ilmiy g'oya, iqtisodiy qonuniyat va tushunchalar asosida kompetensiyalarni tarkib toptirish, fanga doir xususiy kompetensiyalarga asos bo'ladigan tushunchalar ilmiy-kognitiv jihatdan maqsadga muvofiq mantiqiy (kogerentlik) ketma-ketlikda o'zlashtirilishiga zamin yaratadi.

REFERENCES

1. Хакимова М.Ф., Мамаражабов Ш.Э. Кредит таълим шароитида талабаларнинг умумкасбий тайёрлигини дифференциал ёндашув асосида шакллантиришнинг баъзи жихатлари / "Uzluksiz ta'lif tizimida "bosholang'ich ta'lif" mazmunini sifat jihatidan yangilash :muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy konferensiya materiallari (5 noyabr 2022 yil) – T.: Guliston 2022, B.393-397.
2. Хакимова М.Ф., Мамаражабов Ш.Э. Кредит таълим шароитида талабаларни умумкасбий тайёрлигини дифферециал ёндашув асосида шакллантириш / "Ta'limi raqamlashtirish sharoitida pedagogika va psixologiyaning muammolari va istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. – Guliston: universitet, 2022. B.7-10.
3. Мамаражабов Ш.Э. Профессионал таълим муассасаларида мутахassislar тайёрлаш жараёнида интегратив кўникмаларини шакллантириш технологияси асосида ўқитиши омиллари, усул ва воситалари / "Электрон таълимда амалга оширилаётган изланишлар: назария ва амалиёт" Республика илмий-амалий конференцияси илмий мақола ва тезислар тўплами, ТДИУ, 2021 йил 26 октябр. Б.67-71.